

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Ashurov	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar	106
T.A.Julboyev	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'lidan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
C.Ф.Джафарзода	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
A.M.Maxmudov	
Yosh futbolchilarning umumiylari va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish	124
I.U.Nurmetova	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish	129
U.R.Radjapov	
Umumiy o'rta ta'limga muktabalaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatlari o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati	136
G.K.Yakubova, M.Mashrapova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatları tahlili	141
B.A.Rahimov	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi	148
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'limga o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari	154
F.I.Sharipova	
The development of reading literacy among future nurses	158
L.X.Bektursinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
K.X.Абдувалиева	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии	169
R.M.Ubaydullayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi	173
M.M.Yuldashev	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
M.A.Suyunova	
Maktabgacha ta'limga tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari	190

IQTISODIYOT

O.Sh.Valiev	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan	194

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	199
S.U.Yuldashev	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari	203
G.N.Navro'zova	
Shoh Naqshbandni tavsiylovchi yangi manbaa	207
A.N.Sanaqulov	
Ta'limga tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari	211



УО'К: 378:004(02)+(07)

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA ANORGANIK KIMYO O'QUV FANIDA MUSTAQIL
TA'LIMDAN ESSE YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ НАПИСАНИЯ ЭССЕ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ
ПО НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ**

**DEVELOPMENT OF ESSAY WRITING SKILLS FOR INDEPENDENT WORK IN
INORGANIC CHEMISTRY IN A CREDIT-MODULE SYSTEM**

Julboyev To'lqin Abduvaliyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasи katta
o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada jahoning eng rivojlangan mamlakatlarda kredit-modul tizimini qo'llashning afzalliliklari keltirilgan va O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida fanlarni o'qitishda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimida o'qitishning afzalliliklari bayon etilgan, ilmiy-uslubiy tavsiyalar berilgan. Kredit-modulli tizimi talabalarni mustaqil ta'lif olishga qaratilgan bo'lib, kredit shaklidagi bilimlar hajmi miqdorini, bilimlarni individual va jamoa bo'lib ishlash asosda ijodiy egallahshi, ta'lif jarayonini qat'iy belgilagan holda ta'lif yo'lini tanlashni belgilaydi. Mustaqil ta'lif o'quv jarayonining muhim ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarda mustaqil bilim olish, mavzuni erkin nazariy - amaliy tahlil qilish, tegishli muammo va masala bo'yicha o'zining shaxsiy intellektual fikriga ega bo'lish, ilmiy tadqiq etish, erkin fikrlash, muammoli masalalar yuzasida xulosa va takliflar ishlab chiqsa olish hamda ularni amaliyatga tatbiq etishga oid zarur bilim, tushuncha va ko'nikmalar shakllanishida katta ahamiyatga ega. Talabaning mustaqil ishi anorganik kimyo o'quv fanidan dasturda belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi lozim bo'ladi.

Аннотация

В статье представлены преимущества использования кредитно-модульной системы в наиболее развитых странах мира и проанализировано ее использование при преподавании предметов в системе образования Республики Узбекистан. Описаны преимущества обучения по кредитно-модульной системе, даны научно-методические рекомендации. Кредитно-модульная система направлена на самостоятельное обучение студентов, определяет объем знаний в виде кредита, творческого усвоения знаний на основе индивидуальной и групповой работы, выбора образовательной траектории при строгой детерминации учебного процесса.

Самостоятельное образование является важной и неотъемлемой составляющей образовательного процесса, которая представляет собой возможность учащихся приобретать самостоятельные знания, свободный теоретический и практический анализ предмета, иметь свое личное интеллектуальное мнение по актуальным проблемам и вопросам, научным исследованиям. имеет большое значение в формировании необходимых знаний, понимания и умений, связанных со свободомыслием, умением вырабатывать выводы и предложения по проблемным вопросам и их реализации. Определенная часть знаний, умений и квалификации, определенных в научной программе предмета «Неорганическая химия» самостоятельной работы студента, должна быть освоена студентом на основе советов и рекомендаций преподавателя естественных наук в аудитории и вне аудитории.

Abstract

The article presents the advantages of using the credit-module system in the most developed countries of the world and analyzes its use in teaching subjects in the education system of the Republic of Uzbekistan. The advantages of training using the credit-module system are described, and scientific and methodological recommendations are given. The credit-module system is aimed at independent learning of students, determines the amount of knowledge in the form of credit, creative assimilation of knowledge based on individual and group work, choice of educational trajectory with strict determination of the educational process.

Independent education is an important and integral component of the educational process, which represents the opportunity for students to acquire independent knowledge, free theoretical and practical analysis of a subject, and have their own personal intellectual opinion on current problems and issues, scientific research. is of great importance in the formation of the necessary knowledge, understanding and skills related to free-thinking, the ability to develop conclusions and proposals on problematic issues and their implementation. A certain part of the knowledge, skills and qualifications defined in the scientific program of the subject "Inorganic Chemistry" of the student's independent work must be

mastered by the student on the basis of the advice and recommendations of a natural science teacher in the classroom and outside the classroom.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lif, esse, tezis, anorganik kimyo, kimyoviy tushuncha, kimyoviy jihozlar, kimyoviy moddalar, bilim, ko'nikma, malaka, oliy ta'lif

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, эссе, тезис, неорганическая химия, химическая концепция, химическое оборудование, химические вещества, знания, навыки, квалификация, высшее образование

Key words: Credit-module system, independent education, essay, thesis, inorganic chemistry, chemical concept, chemical equipment, chemicals, knowledge, skills, qualifications, higher education

KIRISH

Jahon ta'lif taraqqiyotida mamlakat ravnaqi va uning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy mavqeい hamda istiqbollarini belgilashda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati beqiyos.

Kredit-modul tizimi oliy ta'lif muassasalarida bakalavr va magistratura ta'lif yo'nalishlari o'quv dasturidagi akademik kurslar yoki fanlardan modullarni tashkil etish va o'lchash usulidir. Har bir modulga uni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt va kuch miqdoridan kelib chiqib, ma'lum miqdordagi kreditlar beriladi hamda kreditlarni yig'ish ta'lif oluvchilarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mustaqil ta'lif olish kompetensiyasi talabalarda mustaqil o'z-o'zini rivojlantirishga, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[1]. Oliy ta'lif muassasalarida "Anorganik kimyo" fanini kasbga yo'naltirib o'qitish, talabalarining mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy ta'lif tizimida talabalarining mustaqil ta'lif olish motivatsiyasini shakllantirish, analitik va tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantirishning ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida mustaqil ta'lif olish traektoriyalarini belgilash, akmeologik kompetentlilikni rivojlantirishda talabalar mustaqil ishlarining o'rni va samaradorligini kuchaytirish, malaka talablarini egallash jarayonida shaxsnинг sinergetik modelini rivojlantirish masalalari muhim dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda oliy ta'lifning mobilligini ta'minlash, iqtisodiyotning real sohalarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida mustaqil ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarini samarali qo'llashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda[2].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Kredit- modul tizimi talabalarga individual modullarni to'ldirish uchun kreditlar olish imkonini beradi, keyinchalik ular daraja yoki malaka uchun to'planishi mumkin[3.4]. Har bir modul uchun to'plangan kreditlar soni odatda ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarga sarflangan vaqt miqdorini hamda talab qilinadigan mustaqil ta'lif topshiriqlariga berilgan miqdorini to'plashi kerak. Kredit-modul tizimini o'rganishga moslashuvchan va modulli yondashuvni ta'minlab, talabalarga fan bo'yicha bir qator modullardan tanlash va o'z daraja dasturini o'z qiziqlichlari, layoqati va intelektual aqliy qobiliyati hamda maqsadlariga moslashtirish imkonini beradi. Ta'lif olishda shaffoflik asosiy mezon hisoblanadi[5]. Kredit-modul tizimi dunyo bo'yicha oliy ta'lif muassasalarida keng ko'lamda qo'llaniladi va u ta'lif muassasalar bo'yicha turli kurslar o'quv yutuqlarini o'lchash va solishtirishning standartlashtirilgan usulini taqdim etadi.

Kredit-modul tizimidagi mustaqil ta'lif talabalarining an'anaviy akademik muassasalardan tashqarida o'qishni davom ettirish va daraja yoki malaka olish uchun kredit olish qobiliyatini anglatadi[6]. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lif, onlayn kurslar yoki seminarlar yoki o'quv dasturlarida ishtirok etish kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ushbu mustaqil ta'lif faoliyati odatda modullarga tuzilgan bo'lib, ularni bajarish uchun kutilgan vaqt va kuchdan kelib chiqqan holda ma'lum miqdordagi kreditlar beriladi. Mustaqil ta'lif olishni tanlagan talabalar ko'pincha ma'lum bir fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini ko'rsatadigan baholash yoki yakuniy nazoratlarni muvaffaqiyatli topshirib, o'qishlari uchun kredit olishlari mumkin. Keyinchalik bu kreditlar to'planishi va oliy ta'lif muassasasiga o'tkaziladi, keyinchlik ular diplom dasturini tugatish uchun ishlatalishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kredit-modul tizimida professor-o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlaridan esse yozish - talabalarni dolzARB mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilishdan iborat. Esse – aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalar asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanib, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi[7].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, esseni "Anorganik kimyo o'quv fanining o'rni" mavzusi misolida ko'rishimiz mumkin.

Essening kirish qismida – mavzuning mantiqiy va uslubiy jihatdan bog'lab oydinlashtirish, uni yoritish uchun savolni to'g'ri qo'yish kerak. Essega qisqacha tezis qo'yish eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tezis muallifning shaxsiy nuqtai nazaridan fikr bildirilib, asosiy qism isbotlanadigan fikrni yo'naltiruvchi g'oya hisoblanadi [8.9]. Asosan tezis essening kirish qismidan yoziladi. *Masalan.* anorganik kimyo o'quv fanini o'qitish talabalarni anorganik moddalarning sinflari va ularning xossalari bilangina emas balki, bu fanning nazariy asoslari bilan ham tanishtirishdan iborat. Bundan tashqari anorganik kimyo o'quv fanidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish uchun amalda bajarish mumkin bo'lgan tajribalar, ya'ni, kimyoviy idishlar bilan tanishish, kimyoviy moddalar va ularning xossalari o'rganish, gazli va elektr qizdirish vositalari bilan ishlay bilish, zamonaviy tarozilarda tortish, turli laboratoriya tajribalarini o'tkaza bilish ko'nikmasini rivojlantirish, shisha naylar va idishlar yordamida turli tajribalar o'tkazish, qurilmalarini tuza bilish, o'quv adabiyotlarini tahlil qila bilish, kimyoviy formula va tenglamalar bilan hisoblashlar o'tkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Essening asosiy qismida - mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi bo'lim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bog'liq dalil va faktlar jamlangan bo'lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma'lumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, ko'tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi. Dalillar - talaba tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko'chirma (maqol, sitata, hikmatli so'z, g'oya, va hokazo). Qo'yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak. Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma'lumotlarni keltirish jarayonida qo'yilayotgan masalaga talabaning shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo'lsa kabi kirish so'zlardan foydalanish o'rini bo'ladi. *Masalan.* anorganik kimyo o'quv fanining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, kimyo fanlarining keyingi yutuqlari, kimyoning nazariy masalalari to'g'risida, jumladan atom va molekulalar tuzilishining kvant mexanik talqinini, kimyoviy bog'lanish to'g'risidagi tassavurning rivojlanishi va umumiylaysi, kimyoviy termodinamika, kimyoviy jarayonlarining kinetik va termodinamik qonuniyatlarini, D.I.Mendeleyev davriy sistemasi, asosiy va qo'shimcha guruhi elementlari xossalari, oddiy va murakkab moddalarining tuzilishi, olinishi va xossalari, nazariy bilimlarini amalda, ya'ni laboratoriya ishlarini bajarshda qo'llash kabi ma'lumotlar keltiriladi.

Essening xulosa qismida mavzu bo'yicha chiqariladigan yakuniy jumlalar bo'lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyangan holda yakun chiqarilib, uni yechish yo'llari ko'rsatiladi. Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya'ni "Esse boshida ko'tarilgan masala bo'yicha nima deyish mumkin?" degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak. Xulosa qismida quyidagi kirish so'zlardan: men shunday xulosaga keldimki, qisqasi, asosiy fikrim shuki, xulosa qilib aytganda... va boshqalar foydalanish mumkin.

Masalan. anorganik kimyo o'quv fani nazariyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lischadi, kimyoning nazariy asoslарini tajribalar orqali amalda qo'llay olish, tajribalar qo'yish, tajriba natijalarini hujjatlashtirish, ularni tahlil qilish, grafik chizish, ilmiy adabiyotlardan foydalana olish, kimyo qonuniyatlarini asosida umumiylaysi xulosalar chiqara olishi, kimyo fani nazariyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerakligi haqida qisqacha xulosa chiqaradi.

Esse yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak: Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog'liq bo'ladi. *Masalan*, kirish qismida "Men haqida shuni aytmoqchiman" deb boshlansa, yakuniy qismida "Men xulosaga keldim" kabi tugallanadi. Esse yozishda his-hayajonli, ta'sirchan va badiiy bo'yoqdor so'zlardan foydalilanadi. Esse ko'lamiga e'tibor berish (200-250) ta so'zdan iborat bo'ladi. Kirish qismi 60–70 ta so'z, asosiy qism 100–130 ta so'z, xulosa 30–40 ta so'z), esseda birgina mavzu atrofida fikr yuritiladi[10]. Unda birgina fikr o'rta ga tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g'oyasi bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Esse erkin ijod etish asosida yoziladi. Yaxshi esseni mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o'z g'oyalari bilan talabani o'ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi. Esse yozishda bir qolipdag'i so'zlardan foydalanish, so'zlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli bo'lish kerak. Esse tili salmoqlilikni talab qiladi. Bunda esse mavzusini oydinlashtirish, hajmini va maqsadni aniq belgilab olish muhimdir. Eshedda badiiy to'qima va fantaziya bo'lmaydi. Unda adabiy til uslublaridan to'g'ri va o'rinni foydalaniladi. Esse ixcham hajmli bo'lgani bois, fikr-mulohaza bildirishda batafsil hikoyalashdan cheklanish, keltirilgan ma'lumotni ipidan ignasigacha bayon etishdan saqlanish, bir aytilgan fikni yana qayta takrorlashga yo'l qo'ymaslik kerak. Uzundan uzoq, aralash turdag'i qo'shma gaplar o'rniga qisqa va ixcham ifoda usulini qo'llagan ma'qul. Esse xatboshilarga to'g'ri ajratilishi kerak. Esseni yozib bo'lgach, uni qayta-qayta o'qib chiqish tavsiya etiladi. Ensiklopediya va turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'z o'rnida qo'llanishi kerak. Aks holda, essening badiyligi va ta'sirchanligiga putur yetishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, esse yozishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilinadi: shaxsiy munosabatning bildirilishi, tezis - kalit so'zni to'g'ri aniqlash, faktli dalillar, nazariyaga asoslanish, atamalarni o'z o'rnida qo'llash, sitatalar keltirish, mantiqiy qonuniyatning saqlanishi, taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish, savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari), humor, o'tkir hajv, nazariy va ilmili jihatdan asosli, foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalarini o'z o'rnida foydalanish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sun qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom". Toshkent, 2020-yil.
2. V.O'rino. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. Qo'llanma. El-yurt umidi jamg'armasi va Respublika Oliy ta'lif Kengashi bilan hamkorlikda. 2020 y. -64 b.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. -Toshkent, TKTI, 2020. 120-bet.
4. Xudoyberdiyev N.M., Bektoshev O.K. The Role of the Credit-module system in european higher education. Middle European Scientific Bulletin Volume 16 Sep. 2021.76-81.
5. Karimova D.R.Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lif. Uslubiy qo'llanma. D.R.Karimova. -Toshkent: "Complex Print", 2021. -126 b.
6. Turdiyeva G.S. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini bulutli texnologiyalar orqali tashkil etish usullari. Monografiya. Buxoro: "Sadreddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-116 b.
7. Azimova I, Mavlona K, Jabborova M, Shokir Tursun. O'zbek adabiy tili. T-2022. 216-bet.
8. European Commission Education and Learning (2008), The bologna process.
9. E-learning The Bologna process, The European credit transfer system (ECTS), learning outcomes and reprotool philippou pouyioutas, harald gjermundrod, and ioanna dionysiou university of nicosia research foundation (unrf), Cyprus. E. Popescu et al. 2012. Springer - Verlag Berlin Heidelberg 2012.
10. <http://natlib.uz> Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.